

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



**OILA PSIXOLOGIYASI  
FANINING O'QUV DASTURI**

- |                    |   |
|--------------------|---|
| Bilim sohasi:      | 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| Ta'lif sohasi:     | 310000 – Ijtimoiy va xulq - atvorga oid fanlar    |
| Ta'lif yo'nalishi: | 60310300 – Psixologiya                            |

<b>Fan/modul kodi</b> OIPS1704	<b>O‘quv yili</b> 2027-2028	<b>Semestr</b> 7	<b>ECTS - Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta’lim tili</b> O‘zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Oila psixologiyasi</b>	48	72	120
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o‘qitishning maqsadi</b> – talabalarni zamonaviy oilaning asosiy muammolari, oila-nikoh munosabatlarning rivojlanish tendensiyasi bilan tanishtirish.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – fanning tushuncha-kategoriya apparatlari bilan tanishtirish; zamonaviy oilaning asosiy muammolari va oila-nikoh munosabatlari bilan tanishtirish; oilaviy hayot siklining turli davrlarida funksional-rolli tizimini o‘zgarib borishi va rivojlanish qonuniyatlarini muhokama etish; er-xotin munosabatlari va hayotda o‘z juftini topishning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish; oilada me’yordan tashqari inqiroz va ularni bartaraf etishni ko‘rib chiqish; talabalarda psixologiya o‘qitishdagi kasbiy malaka va ko‘nikmalar hamda o‘rganilayotgan mavzuni tanqidiy mushohada qilishni shakllantirish.</p>			
<p><b>II. Asosiy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)</b></p> <p><b>II. II. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Oilaviy munosabatlar psixologiyasining predmeti va vazifalari</b></p> <p>Oilaviy munosabatlar psixologiyasining predmeti va vazifalari. Oila psixologik tadqiqot birligi sifatida. «Oila» tushunchasining psixologik mazmuni. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi haqida tushuncha. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi fanining vazifalari.</p> <p>Oila psixologik tadqiqotlarning bir bo‘lagi sifatida. “Oila” tushunchasining psixologik mohiyati. Oila hayot faoliyati makoni sifatida.</p> <p>Shaxs rivojlanishida oilaning roli. Oila ijtimoiylashuvning muhim instituti sifatida.</p> <p><b>2-mavzu. Oila ijtimoiy institut sifatida</b></p> <p>Oila ijtimoiy institut sifatida. Oila institutining tarixi. Sotsiogenezesda oila rivojlanishining tarixi. Oila evolyutsiyasini belgilovchi omillar. Oilanining madaniy, tarixiy va etnik xususiyatlari.</p> <p>Zamonaviy oilanining rivojlanishi haqidagi g‘oyalar. Oila ijtimoiylashuvning muhim instituti sifatida. Demografik o‘zgarishlar va ularning</p>				

oilaviy hayotga ta'siri.

### **3-mavzu. Oila funksiyasi va oila tiplari**

Oila funksiyasi, oila tiplari va rollari. Oila funksiyalari: reproduktiv, kommunikativ, iqtisodiy, tarbiyaviy, felitsitologik, regulyativ, relaksatsiya.

Funksional va disfunktional oilalar. Oilalarning tuzilmasi va hayot sifatiga ko'ra klassifikatsiyasi. Oila dinamikasi. Turli klassifikatsiyalar bo'yicha oilaning rivojlanish bosqichlari. Oiladagi o'zgarishlar: pozitiv va negativ, kutilgan va kutilmagan o'zgarishlar va ularning er-xotin munosabatlariga ta'siri. Oilaviy-rollarga nisbatan qo'yiladigan talablarga mutanosiblik.

### **4-mavzu. Oilani o'rganishda tizimli yondashuv**

Tizimli yondashuv. Oila tizimini o'rganishning umumiy xarakteristikasi. Oila tushunchasi va parametrlari tizim sifatida. Oila qonunlari tushunchasi va ularning oilaviy hayotdagi roli. Oila chegaralari va o'zaro harakat standartlari. Oila afsonalari va miflari. Oilani anglashda oila haqidagi miflarning rolli. M. Bouenning oilaviy tizimlari haqidagi nazariyasi.

Xulq-atvor namunalari va oila ichidagi munosabatlarning avloddan avlodga o'tishida psixogenetik tuzilmalarning avloddan avlodga o'tuvchi ahamiyati. Oila genogrammasi va genosotsiogrammasi.

### **5-mavzu. Oilaning hayotiy sikli**

Oilaning hayotiy sikli. Oila hayotiy siklini davrlashtirish muammosi. Turli mualliflar nuqtai-nazaridan oila bosqichlari tahlili. Oila hayotiy siklining asosiy bosqichlari.

Yosh va yetuk oilada oilaviy munosabatlarning rivojlanishidagi asosiy vazifalar. Oila dinamikasi hayotiy sikli doirasida yuzaga keluvchi asosiy oilaviy hodisalarning o'ziga xosligi.

Oila rivojlanishining normativ inqirozlari. Oila funksiyasining buzilish omillari: o'ta kuchli, uzoq muddatli surunkali, oila stereotipi va turmush darajasining keskin o'zgarishi, qynchiliklarning yig'ilishi.

### **6-mavzu. Umr yo'ldoshini tanlash nazariyalari**

Umr yo'ldoshini tanlash nazariyalari. Jinsiy tafovutlar va oilaviy munosabatlar. Psixologik androginiya nazariyasi.

Psixologik tadqiqotlarga ko'ra sevgi tipologiyasi. Muhabbat bosqichlari. Bo'lg'usi nikoh munosabatlarining ijobiy va salbiy omillari.

Nikohga kirish motivatsiyalari. Nikoh motivlari tiplari.

Oilada shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari. Oilada muloqotning buzilish sabablari. Oilada effektiv muloqotni tashkil etish omillari. Er-xotinlarning psixologik birligini muammosi.

Oila jipsligi. Jipslik omillari. Jipslik darajalari. Nikohdan subyektiv qoniqish. Nikohdan qoniqmaslik sabablari. Er-xotinlarga psixologik yordamning asosiy yo'nalichlari.

### **7-mavzu. Psixologik adaptatsiya va oila integratsiyasi**

Psixologik adaptatsiya va oila integratsiyasi. Oilaviy hayot sohasidagi

adaptatsion mexanizmlar. O‘zaro moslashuvning psixologik mohiyati. Oilaviy adaptatsiyaning asosiy turlari tushunchasi. Moddiy, axloqiy-psixologik, intim-shaxslilik adaptatsiyalari. Oilaviy motivlar shakllanishi va rivojlanishiga olib keluvchi oila integratsiyasining ijtimoiy-funksional mexanizmlari.

Oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit. Nikohdan qoniqish omillarini sistemalashtirish. Er-xotin mutanosibligini nikohning muhim sharti sifatida tushunish.

Er-xotin qoniqqanligi bo‘yicha 3 yo‘nalish: tizimli yondashuv, funksional yondashuv, moslashuvchanlik yo‘nalishi bo‘yicha tadqiqotlari. Komplementarlik va gomogamlikning er-xotin qovushganligida qo‘llanilishi.

### **8-mavzu. Oilaviy mojarolar va ularning sabablari**

Nomaqbul oila – oilaning ichki muhitida psixologik qulayligini pastligini asoslab beruvchi shakli. Oilaviy mojarolar va ularning sabablari.

Oilaviy mojarolar: er-xotin o‘rtasidgi mojarolar. Qaynona-kelin o‘rtasidagi mojarolar. Ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi mojarolar. Oilada muomala qiyinchiliklari. Oilaviy mojarolarning kelib chiqish sabablari. Ko‘p qirrali aylanali kauzallik qonuni va shaxslararo munosabatlarning turli xil aspektlari. Noma’qbul oila psixologik muhit salbiy bo‘lgan oila sifatida.

### **13-mavzu. Oilaviy hayot siklining nonormativ krizislari**

Ajralishlar va qayta nikohlar muammosi. Ajralish omillari na sabablari. Ajralish jarayonining bosqichlari. Ajrimgacha bo‘lgan oila (ajrimning emotsiyal fazalari: ajrim to‘g‘risida qaror qabul qilish, oila sistemasinin tugatilishi), ajrim jarayonidagi oila (farzandlarga tushuntirish, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy ajrim). Ajrimdan keyingi oila (yangi oila tizimini shakllantirish). Ajralishlarnish etnik va tarixiy xususiyatlari. Ajralish - tugallanmagan geshtalt sifatida. Ajralish shaxs noyetukligi sifatida. Ajralish jarayonidan keyingi davrlashtirish. Erkaklar, ayollar va bolalar uchun ajralishlarning oqibatlari.

Qayta turmush qurish. Yangi oila tizimini shakllanishining asosiy shakllari. Qayta turmush qurishning psixologik muammolari.

Bevalik. Psixologik yordamning asosiy vazifalari va yo‘nalishlari.

Bola saqlab olish muammolari. Bolani yangi oilaga qo‘shilishida samarali psixologik shartlari. Bolani yangi oilaga kirishining omillari va dinamik jihatdan aniqlanishi.

### **14-mavzu. Shaxs yetukligi va oilaviy munosabatlarni ko‘rinishi**

Shaxs yetukligi va oilaviy munosabatlarni ko‘rinish. Oilaviy munosabatlar psixologiyasida shaxs yetukligi muammosi. Oila-nikoh munosabatlariga tayyorlik. Tadqiq etish darajasi. R.Enrayt modeli. Emotsional-psixoterapevtik funksiya, uning shaxs tuzilmasidagi o‘rni.

## **III. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

*Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Oilaviy munosabatlar psixologiyasining predmeta va vazifalari

2. Oilaning vujudga kelishi va rivojlanishi
3. Oila funksiyasi, oila tiplari va rollari
4. Oilani o‘rganishda tizimli yondashuv
5. Oilani o‘rganishda sharqona qarashlar
6. Oilaning hayotiy sikli
7. Umr yo‘ldoshini tanlash nazariyalari
8. Psixologik adaptatsiya va oila integratsiyasi
9. Ota-onalarni farzandlarning munosabatlarning xususiyatlari
10. Oila va oilaviy munosabatlarni talqin etishda psixoanaliz maktabi
11. Oilaviy mojarolar va ularning sabablari
12. Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari
13. Oilaviy hayot siklining nonormativ krizislari
14. Shaxs yetukligi va oilaviy munosabatlarni ko‘rinishi
15. Oila diagnostikasi va konsultatsiyasi xususiyatlari
16. Oilaviy tizimning tadqiq etish metodlari

#### **IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

*Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:*

1. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi haqida tushuncha.
2. Oilada kelishmovchiliklar va ularning sabablari.
3. Oila funksiyasi, turlari, oilada rollar taqsimoti.
4. Oilaning hayotiy sikli.
5. Oila tizim sifatida (M.Bouen).
6. Umr yulduz tanlash nazariyalari.
7. Oilada psixologik muhit.
8. Oilada shaxslararo munosabatlar.
9. Oilaviy mojarolar va ularning sabablari
10. Nikohdan tashkari munosabatlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlar
11. Oila diagnostikasi va konsultatsiyasi xususiyatlari
12. O‘zbekistonda oila psixologiyasi maktabini yaratilishi.
13. Oila psixologiyasini sharqona qarashlari.
14. Oila psixologiyasi va ularning zamonaviy psixologiyasini rivojlanishida tutgan o‘rni.

#### **3. V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- oila kichik guruh va ijtimoiy institut sifatida; oila-nikoh munosabatlarining tarixiy rivojlanishi; oila va nikoh tushunchalari; oila-nikoh munosabatlari evolyusiyasi; oilaviy munosabatlarning etnik xususiyatlari; oila tiplari va zamonaviy oilaning asosiy kategoriyalari, ularning xususiyatlari; oila

	<p>tuzilmasi va dinamikasi, oiladagi o‘zaro munosabatlar tuzilmasi, sibling munosabatlar; oila dinamikasi, psixologik adaptatsiya va oila integratsiyasi <b><i>haqida tasavvurga ega bo‘lishi;</i></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• er-xotin munosabatlari – oilaviy ittifoq, oila barkamolligi asosi ekanligini; turli nazariy yondashuvlarda er-xotin munosabatlari tabiatini va qonuniyatlarining tahlilini; sevgining psixologik tahlili va uning tipologiyasi; sevgi yetishmasligi (defitsitligi) mohiyati va emotsiyonal munosabatlarning so‘nishi; nikoh oldi omillari; nikoh motivlari; oila tizimiga ilmiy yondashuvlarini <b><i>bilishi va ulardan foydalana olishi;</i></b></li> <li>• oilaviy mojarolar va ularning sabablari; oilaviy muhitning bola psixologiyasiga ta’siri; simpatiya-antipatiya; hurmat-hurmatsizlik; psixologik yaqinlik-uzoqlik tushinchalarini farqlay olish <b><i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.</i></b></li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’ruzalar;</li> <li>• amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• blis-so‘rov;</li> <li>• guruhlarda ishslash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishslash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Z.E.Abduraxmanova Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Ma’rifat”. T.2023. -188 b.</li> <li>2. Z.E.Abduraxmanova Oilaviy tizimning tadqiq etish metodlar. O‘quv qo‘llanma “Ma’rifat” T.:2024-yil.-212 b.</li> </ol> <p><b>Qo‘srimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Закон Республики Узбекистан от 02.09.2019 г. № ЗРУ-561 «О защите женщин от притеснения и насилия».</li> <li>2. Закон Республики Узбекистан от 02.09.2019 г. №ЗРУ-562 «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин».</li> <li>3. Семейный Кодекс Республики Узбекистан//Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. 30 апреля 1998 г. IJRL: <a href="https://lex.uz/docs/104723">https://lex.uz/docs/104723</a> (дата обращения: 23.03.2021).</li> <li>4. Постановление Президента Республики Узбекистан «Об утверждении концепции укрепления института семьи в Республике Узбекистан» № 1111-</li> </ol>

	<p>3808 от 27.06.2020 г.</p> <p>5. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по совершенствованию системы социальной реабилитации и адаптации, а также профилактики семейно-бытового насилия» №ПП-3827 от 02.07.2018 г.</p> <p>6. Carr A. Family Therapy. Concepts, Process and Practice. Second Edition. John Wiley &amp; Sons Ltd, 2006. 649 p.</p> <p>7. Vangelisti A.L., Perlman D. The Cambridge Handbook of Personal Relationships. Cambridge University Press, 2006. 914 p.</p> <p>8. The Wiley-Blackwell Handbook of Family Psychology/ Edited by James H. Bray and Mark Stanton. Blackwell Publishing Ltd, 2009. 779 p.</p> <p>9. Thoburn J. W. Family psychology: theory, research, and practice / John W. Thoburn and Thomas L. Sexton. Praeger, 2015. 281 p.</p> <p>10. Бейкер К. Теория семейных систем М.Боуэна. Основные понятия, методы и клиническая практика. М., 2005</p> <p>11. Бондаренко А.Ф. Доценко Е.Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. М.: ЧеРо, 1997.</p> <p>12. Варга А. Введение в семейную психотерапию. М., 2011. 12. Введение в практическую социальную психологию/ Под ред. Ю.Жукова, Л.Петровской, О.Соловьевой. М., 1996.</p> <p>13. Дружинин В.Н. Психология семьи. СПб.: Питер, 2006. 176 с.</p> <p>14. Демидenko Н.Н. Психология семьи: учебное пособие с кейсами и задачами. Тверь: Твер. гос. ун-т, 2019. 121 с.</p> <p>15. М.Олифирович Н. И., Зинкевич-Куземкина Т. А., Велента Т. Ф. Психология семейных кризисов. СПб.: Речь, 2006. 260 с.</p> <p>16. Психология семейных отношений с основами семейного консультирования. Под ред. Е.Г.Силяева. М.: Издательский центр «Академия», 2002.</p> <p>17. Сатир В.Психотерапия семьи. СПб: Речь, 2000.</p> <p>18. Черников А.В. Системная семейная терапия психотерапии. М., 2001.</p> <p><b>Ахборот манбаалари:</b></p> <p>19. URL: <a href="https://www.apa.org/pubs/databases/psycinfo/index.aspx">https://www.apa.org/pubs/databases/psycinfo/index.aspx</a></p> <p>20. URL: <a href="http://magazine.mospsy.ru">http://magazine.mospsy.ru</a></p> <p>21. URL: <a href="http://psyjournals.ru">http://psyjournals.ru</a></p>
7.	O‘quv dasturi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Kengashining 20_yil _____ gi _____ sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
8.	<b>Fan/modul uchun mas’ullar:</b> Z.E.Abduraxmanova O‘zMU, “Ijtimoiy psixologiya” kafedrasи prof.v.b., psixologiya fanlari nomzodi M.X.Karamyan - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
9.	<b>Taqrizchilar:</b> A.I.Rasulov - O‘zMu “Psixologiya” kafedrasи professori, psixologiya fanlari

doktori (DSc)

E.Z.Usmaova – M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti  
Toshkent filiali dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi (turdosh OTM)